

STATISTIK HISOBTLARDAGI ISHLAB CHIQARILGAN XIZMATLARNING KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH

Abdusalomova Istoraxon Ilxom qizi

KMO va STI ti 3 kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida Mikrofirma va kichik korxonalar yillik hisobotining o'ziga xos xususiyatlari, Statistik hisobot bilan bog'liq mavjud muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Kalit so`zlar: Ishlab chiqarish, xizmat, mikrofirma, kichik korxona, statistik hisobot, mehnat, o'rtacha ish haqqi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydag'i "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ5113-son qarorining 15-bandij ijjrosini ta'minlash maqsadida¹, axborotkommunikatsiya va dasturlash xizmatlarini hisobga olgan holda "Ishlab chiqarilgan, shu jumladan, qishloq joylarda ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi takomillashtirish maqsad qilib olingan.

Korxonalarning statistik kuzatuvlarini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentyabrdagi 274-sonli qaroriga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan har tomonlama va doimiy ravishda yangilanib turadigan korxonalar va tashkilotlarining yagona davlat reestri bo'lib xizmat qiladi².

Statistikada ishlab chiqarilgan xizmatlarni, shu jumladan shahar va qishloq joylarda ko'rsatiladigan xizmatlarni statistik hisobga olish xizmat ko'rsatish sohasidagi statistik hisobni yanada takomillashtirish va ularning yangi turlarini, shu jumladan shahar va qishloq joylarda ko'rsatiladigan xizmatlarni hisobga olgan holda xizamat ko'rsatish sohasi bozorining holati to'g'risida statistik ma'lumotlarni shakillantirish tartibini belgilashga yordam beradi.

Milliy hisoblar tizimi (MHT)da faqatgina ishlab chiqarish omillari ishtirokida yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar hisobga olinadi.

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatiladigan) xizmatlarning hajmi - bu barcha xizmat ko'rsatuvchi provayderlar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan xizmatlarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydag'i "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ5113-son qarorining 15-bandji.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentyabrdagi 274-sonli qarori.

Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th June, 2023

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmatlar ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan bozor xizmatlarining qiymati³.



1-rasm. . Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti⁴

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatiladigan) xizmatlarning umumiy hajmi barcha turdag'i korxonalar va tashkilotlarning hisobot va namunaviy so'rovlari asosida shakillantiriladi.

Xizmatlar istemolchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarning almashinuvini osonlashtiradigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasidir.

Iste'molchilarning xizmat ko'rsatuvchilarga murojat etadigan holatidagi o'zgarishlar har xil shakillarda bo'lishi mumkin:

- istemol tovarlari holatining o'zgarishi (transport, tozalash, ta'mirlash yoki boshqa turdag'i o'zgarishlar);
- jismoniy shaxslarning jismoniy holatidagi o'zgarishlar (masalan, terapevtik yoki jarrohlik davolanishni taminlash, tashqi ko'rinishini yaxshilash);
- shaxslarning intellektual holatidagi o'zgarishlar (ta'lim, ma'lumot, maslahat, ko'ngil ochish yoki shunga o'xshash xizmatlarni ko'rsatish).

Ko'rsatiladigan xizmatlarning ma'lum davrdagi hajmi quyidagilar asosida shakillantiriladi:

³ Qoraboev A.R, G'oyibnazarov B.K, Rashitova N.X. "Milliy hisoblar tizimi" darslik. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2015y. 129b.

⁴ Manba: www.stat.uz

- yirik tijorat tashkilotlari uchun davlat statistika hisobotlari;
- har chorakda o'tkazilgan so'rov ma'lumotlari, shuningdek tugatilgan korxonalarning hisoblangan hajmlarini hisobga olgan holda kichik biznes va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida kichik biznes subektlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini baholash;
- davlat statistika hisobotining tegishli shakillari bo'yicha fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlari tomonidan ko'rsatilabigan xizmatlar hajmini baholash;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar va yakka tartibdagi ishbilarmonlar tomonidan har chorakda o'tkaziladigan tanlab olingan so'rov natijalari bo'yicha amalga oshiriladigan xizmatlar hajmini baholash.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida Mikrofirma va kichik korxonalar 1-kb shakli Yillik hisobotlari internet tarmog'i vositasida, davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda yig'ish avtomatlashtirilgan tizimi eStat 3.0 orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda taqdim etiladi⁵.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu takliflar ishlab chiqarilgan (ko'rsatiladigan) xizmatlar bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarning hisobotlarni o'z vaqtida, ishonchli yuborilishi uchun tushunmovchiliklar kelitrib chiqarmasdan statistik hisobotlarni junatilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika hisobotlarni elektririon shakilda qabul qilishda ham statistika organlarining amaliy faoliyatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydag'i "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ5113-sон qarorining 15-bandi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentyabrdagi 274-sonli qarori.
3. Qoraboev A.R, G'oyibnazarov B.K, Rashitova N.X. "Milliy hisoblar tizimi" darslik. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2015y. 129b.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Mikrofirma va kichik korxonalar 1-kb shakli Yillik hisobotlarida amalda.
5. www.stat.uz

⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Mikrofirma va kichik korxonalar 1-kb shakli Yillik hisobotlarida amalda.



Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th June, 2023

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

-
- 6. www.norma.uz
 - 7. www.lex.uz
 - 8. www.ziyonet.uz



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings